



DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20118492>

Paramedicsina yo'nalishi talabalarini tibbiy maqsadlarda ingliz tiliga o'qitishning pedagogik asoslari

Yaxshiboyeva Gulbahor Oybek qizi –

Andijon davlat tibbiyot instituti,
“Xorijiy tillar” kafedrasida dotsenti,
pedagogika fanlari doktori (DSc)

E-mail: yakhsiboyevaguli@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-1022-2216>

***Annotatsiya.** Zamonaviy tibbiyot ta'limi talabalardan nafaqat tibbiy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishni, balki xalqaro kommunikatsiyaga tayyor bo'lishni ham talab qilmoqda. Xususan, tibbiyot oliy o'quv yurtlarida ingliz tilini o'rgatish bugungi global sharoitda ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ingliz tili nafaqat xalqaro ilmiy axborot almashinuvining asosiy vositasi, balki tibbiyot sohasi uchun o'ziga xos atamalar va terminologiyani o'z ichiga olgan muhim kasbiy kommunikatsiya vositasidir. Shu sababli, tibbiy ingliz tilini o'rgatish o'zining texnik murakkabligi, aniqlikka asoslangan muloqot talablari va sog'liqni saqlash tizimidagi spetsifik mazmuni bilan boshqa tillarni o'qitishdan sezilarli darajada farq qiladi.*

***Kalit so'zlar:** task-based learning, simulyatsion treninglar, audio-video vositalar, contextual learning, communicative approach, kompetentlik yondashuv.*

Педагогические основы обучения студентов направления парамедицины английскому языку для медицинских целей

***Аннотация.** Современное медицинское образование требует от студентов не только владения медицинскими знаниями и практическими навыками, но и готовности к международной коммуникации. В частности, обучение английскому языку в медицинских высших учебных заведениях в современных глобальных условиях является одним из приоритетных направлений. Английский язык выступает не только основным средством международного обмена научной информацией, но и важным инструментом профессиональной коммуникации, включающим специфические термины и терминологию медицинской сферы. В связи с этим обучение медицинскому английскому языку существенно отличается от преподавания других языков своей технической сложностью, требованиями к точности коммуникации и специфическим содержанием, связанным с системой*

здравоохранения.

Ключевые слова: *task-based learning, симуляционные тренинги, аудио-видеосредства, contextual learning, communicative approach, компетентностный подход.*

Pedagogical foundations of teaching english for medical purposes to paramedicine students

Annotation. *Modern medical education requires students not only to possess medical knowledge and practical skills, but also to be prepared for international communication. In particular, teaching English in medical higher education institutions has become one of the priority areas in today's global context. English is not only the main medium of international scientific information exchange, but also an important means of professional communication that includes specific terms and terminology related to the medical field. Therefore, teaching medical English differs significantly from teaching other languages due to its technical complexity, the need for accuracy in communication, and its specific content related to the healthcare system.*

Keywords: *task-based learning, simulation trainings, audio-video tools, contextual learning, communicative approach, competence-based approach.*

KIRISH

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy taʼlimni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi farmoni asosida oliy taʼlim tizimi tubdan modernizatsiya qilinib, sohaga zamonaviy yondashuvlar, xalqaro standartlarga mos kadrlar tayyorlash modeli va taʼlimdagi innovatsion texnologiyalar joriy etildi. Ushbu islohotlar doirasida tibbiy taʼlim muassasalarida xorijiy tillarni, ayniqsa ingliz tilini oʻrgatishga boʻlgan yondashuv tubdan yangilandi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni koʻrsatmoqdaki, har bir mamlakat tibbiy taʼlimda xorijiy tilni oʻrgatishning oʻziga xos milliy modelini ishlab chiqqan. Mamlakatimizda esa bu boradagi yondashuvlar xalqaro tajriba va milliy ehtiyojlar sintezi asosida shakllanmoqda. Tibbiyot sohasi boʻyicha xalqaro tajriba almashinuvi, chet ellik talabalar va bemorlar bilan samarali muloqotga kirisha olish zamonaviy tibbiy xizmat sifati va global integratsiyalashuvning ajralmas boʻlagidir.

Xususan, ingliz tilida ilmiy maqolalar, klinik tavsiyalar, dori vositalari haqida yoʻriqnomalar hamda ilmiy hisobotlar chop etilishi tibbiyot xodimlarini tilni nafaqat umumiy maqsadda, balki kasbiy faoliyat darajasida egallashini zarur qilmoqda. Tibbiy atamalarni toʻgʻri tushunish va ishlatish, ayniqsa klinik holatlarda yoki tarjima jarayonlarida juda muhim boʻlib, bu holat talabalardan kasbiy leksikani chuqur oʻzlashtirishni talab qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bugungi kunda tibbiy ingliz tilini oʻqitishda kommunikativ yondashuv, vazifaga asoslangan oʻqitish (Task-based learning), simulyatsion treninglar, audio-video vositalardan foydalanish, terminologik glossariylar bilan ishlash kabi metodlar samarador hisoblanadi. Bu esa tibbiy nutqni shakllantirishda amaliyotga yaqin holatlar orqali bilim va koʻnikmalarni integratsiyalashga xizmat qiladi, yaʼni:

2.7–jadval.

Tibbiy ingliz tilini o'qitishning asosiy pedagogik yondashuvlari

Communicative Approach	tibbiyotga oid real hayotiy muloqot holatlari asosida dars tashkil etiladi
Task-based Learning	klinik vazifalar va muammoli holatlar asosida tilni o'rgatish
Contextual Learning	tibbiy faoliyatga yaqin muhitda o'rgatish
Multimedia va video kontentlardan foydalanish	tibbiy intervyular, bemor bilan suhbatlar, dori vositalari haqida videolar orqali eshitish va tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish

Tilshunos olimlardan biri Nargiza Rajabovanning “Ingliz tilini tibbiyot yo'nalishida o'qitishning metodik yondoshuvlari” nomli tadqiqotlarida ingliz tilini tibbiyot yo'nalishidagi talabalar uchun samarali o'rgatish metodlari chuqur tahlil etilgan. Tadqiqotda kommunikativ yondashuv asosida o'rgatish, interaktiv metodlardan foydalanish va terminologiyani zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida o'zlashtirish mexanizmlari taklif etilgan.

Ayniqsa, paramedicsina yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun ingliz tilini o'rgatish – kasbiy faoliyatda xalqaro amaliyotga tayyorlash, chet ellik hamkasblar va bemorlar bilan muloqot qilish, xorijiy adabiyotlarni o'qish va tahlil qilish kabi kompetensiyalarni shakllantirishda muhim vositadir. Bugungi kunda bu yo'nalishda simulyatsion o'quv muhiti, DTSlarga mos keluvchi mashg'ulotlar va integratsiyalashgan kasbiy modul asosida ta'lim berish dolzarb hisoblanadi.

Shu bois, tibbiyot talabalarini uchun ingliz tilini o'qitishda XX asr mobaynida shakllangan metodik yondashuvlarni ilmiy jihatdan tahlil qilish, ularning amaliy jihatlarini belgilab berish, shuningdek, har bir metodik tizim doirasidagi didaktik tamoyillarni aniqlash zarur. Bu, o'z navbatida, kasbiy til kompetensiyalarini shakllantirishda ilmiy asoslangan, samarali va strategik yondashuvlarni ishlab chiqishga imkon beradi.

Paramedicsina yo'nalishi talabalarini tibbiy maqsadlar uchun ingliz tiliga o'qitishning pedagogik asoslari quyidagi jihatlarga asoslanadi:

2.8.jadval

Tibbiy maqsadlarda ingliz tilini o'qitishning asosiy pedagogik omillari

Tibbiy sohadagi maxsus leksikaning o'rgatilishi (amaliy hamda nazariy jihatdan)	Paramedicsina yo'nalishidagi talabalar ingliz tilini faqat umumiy so'z boyligi bo'yicha emas, balki tibbiy so'zlashuv va atamalarni bilishlari kerak. Ingliz tilida bemorlar bilan muloqot qilish, tibbiy ma'lumotlarni tushuntirish va dori-darmonlar nomlari, diagnostik usullarni o'rgatish talabalar uchun zarur.
Interaktiv va amaliy o'qitish metodlari	Paramedicsina talabalarini ingliz tilida o'qitishda interaktiv metodlar va simulyatsiyalar (masalan, ro'yxatli suhbatlar, tibbiy holatlar bo'yicha amaliy mashg'ulotlar) samarali bo'ladi.
Didaktik materiallarning moslashtirilishi	O'qitish jarayonida talabalar uchun moslashtirilgan didaktik materiallar (kitoblar, audio va video darsliklar, onlayn platrasmiyar va boshqalar) ishlatilishi kerak. Bu materiallar tibbiyotga oid real ma'lumotlarni ingliz tilida taqdim etishga yordam beradi.

Individual yondashuvi	Har bir talabani oʻqitishda individual yondashuv ham muhim ahamiyatga ega. Talabalarning ingliz tilini bilish darajasi va tibbiy bilimlari turlicha boʻlishi mumkin, shuning uchun darslar individual ehtiyojlarga moslashtirilishi lozim.
Motivatsiya va qiziqishning oshirilishi	Talabalar ingliz tilini oʻrganishga koʻproq motivatsiya olishlari uchun ular oʻqitishda qoʻllaniladigan tibbiy mavzular bilan tanish boʻlishlari kerak. Tibbiyot sohasidagi yangiliklar, amaliyotlar va ehtiyojlarni ingliz tilida oʻrganish, talabalar uchun motivatsiyani oshiradi.


Bu pedagogik asoslar parameditsina yoʻnalishi talabalarini ingliz tilida muvaffaqiyatli oʻqitish va ularga tibbiyot sohasida zarur boʻlgan kommunikatsion va kasbiy koʻnikmalarni shakllantirishda muhim rol oʻynaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Boʻlajak paramediklarning ingliz tilini oʻzlashtirish zarurati ikkita omil bilan bogʻliq: ilmiy bilimlarning tibbiyot sohasining dinamik tabiati va turli davlatlar oʻrtasidagi aloqalarni oʻrnatish tendentsiyasi, bu tibbiyot xodimlari va paramediklar oʻrtasida aloqa va tajriba almashishni oʻz ichiga oladi. Turli tilda muloqot qiluvchi tibbiy mutaxassislar bir-birlari bilan yozma ravishda keng qoʻllaniladigan lotin tilidagi soʻzlarni tushunishi mumkin. Biroq, jonli muloqot qilish uchun lotin tilini oʻzi yetarli hisoblanmaydi va ushbu holatda ingliz tili ustuvorlik qiladi. Tilshunos Erikning qarashlariga koʻra, ingliz tilini bilish boʻlajak mutaxassislarga Science Direct, Web of Science, PubMed, Google kabi nufuzli xorijiy nashrlar va maʼlumotlar bazalarida chop etilgan tibbiyot sohasidagi soʻnggi tadqiqotlar natijalarini oʻrganish va oʻqish imkonini beradi. Paramediklar uchun chet elda stajirovka oʻtash va talaba almashinuvini taʼminlaydigan akademik mobillik dasturlarida ishtirok etish uchun koʻplab imkoniyatlar mavjud. Shuning uchun talabalarga ingliz tilini tibbiy maqsadlarda oʻrgatish kursining mazmuni quyidagi jihatlarni qamrab olishi mumkin: bemorlar va hamkasblar bilan ogʻzaki muloqot, kasbiy mavzularda yozma muloqot (tibbiy hujjatlarni toʻldirish, mutaxassislarga yoʻllanmalar berish, hodisa haqida hisobot yozish, toʻldirish), tibbiyot mavzulari boʻyicha ilmiy matnlarni oʻqish, konferentsiyalarda maʼruzalar va taqdimotlar taqdim etish.

Oʻtkirjon Akramov tibbiyot sohasida ingliz tilini oʻrgatishga qaratilgan "Ingliz tilini tibbiyot sohasida oʻrgatish metodologiyasi" tadqiqotida, ingliz tilini oʻqitishning tibbiy kontekstdagi oʻziga xos xususiyatlarini tahlil qilgan. U tibbiyot sohasi talabalari uchun ingliz tilining ilmiy va tibbiy sohadagi rolini chuqur tahlil qilib, oʻquv dasturlarini yaratishda eng samarali yondoshuvlarni taklif etdi. Uning ishlari ingliz tilini faqat kommunikativ maqsadlarda emas, balki tibbiy atamalarni va ilmiy maʼlumotlarni tushunish va ishlatish uchun oʻrganish zarurligini koʻrsatadi. Vladimir Shevchenko oʻzining tadqiqotlarida ingliz tilini tibbiy maqsadlar uchun oʻqitishda lexicografik va terminologik metodlarning roli haqida yozgan. U tibbiyot yoʻnalishidagi talabalarga tibbiy atamalarni toʻgʻri tushuntirish va ularga asoslangan kommunikativ koʻnikmalarni rivojlantirishda lingvistik yondoshuvlarni qoʻllashning samaradorligini oʻrgangan.

Ingliz tilini tibbiy maqsadlarda oʻqitish borasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, xususan, N.Rajabova, G.Taylor, H.Hutchinson, M.Dudley-Evans kabi olimlar oʻz ishlarida tibbiy ingliz tilining ESP doirasidagi metodik asoslarini aniqlagan. Ularning fikricha, tibbiy ingliz tili:



Ammo, tilshunos va olimlar uchun tibbiyot oshasidagi paramedicsina yo'nalishi yangi sohalardan biri bo'lganligi sababli, ushbu yo'nalishda ingliz tilini o'qitish borasida chuqur izlanishlar olib borilmagan va darslik, o'quv qo'llanmalar ishlab chiqilmagan.

Shunday ekan paramedicsina yo'nalishiga ingliz tilini o'rgatish davomida o'quv jarayonining samaradorligini oshirish uchun mahalliy va hamkor OTMLar tomonidan tasdiqlangan xorijiy darsliklardan foydalanish mumkin. Respublikada ishlab chiqilgan ko'plab adabiyotlar talabalarda leksik va grammatik asoslarni, anatomiya, fiziologiya va patologik jarayonlar, ularni tashxislash va davolash usullarini, maxsus matn bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi. O'quv qo'llanmalarda bemorlar bilan ishlashda hamkasblar, jabr ko'rganlar va ularning oilalari bilan muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan murakkab va tibbiy masalalar bo'yicha muloqot ko'nikmalaridan foydalanish uchun kamroq e'tirof qaratilgan.

O'quv jarayoni talabalarining tibbiy bilimlarini bilan bir qatorda, amaliy muloqot sharoitida ham til ko'nikmalarini oshirish uchun tashkil etilishi kerak. Tibbiyotda ingliz tili quyidagicha bir qator xususiyatlarga ega:

Inson tanasi tizimlarining ishlash jarayonlarini tavsiflashda ko'pincha oddiy zamon shakllari (Present Simple, Past Simple) qo'llaniladi. Bu zamonlar organizmdagi fiziologik jarayonlar va umumiy qonuniyatlarni ifodalash uchun eng mos vosita hisoblanadi.

Masalan: Nutrient absorption mainly occurs in the small intestine; the upper part of the esophagus, the tongue, and the soft palate all contain striated muscle tissue.

Bemorning hozirgi holatini aniqlashda esa hozirgi zamonni ifodalovchi so'roq shakllar keng ishlatiladi.

Masalan: Where is the pain located? Does it radiate? Does it disturb your sleep? — bu kabi savollar shikoyatlarning hozirgi paytdagi ifodasini aniqlashga yordam beradi.

Anamnez to'plash bosqichida esa vaqt bilan bog'liq voqealar haqida ma'lumot olish maqsadida o'tgan zamon shakllari ishlatiladi.

Masalan: When did the pain start? When did you first experience the attack? — bu savollar og'riq yoki simptomlarning paydo bo'lgan vaqtini aniqlashga xizmat qiladi.

Kasallikning boshlanishi yoki davomiyligi haqida so'z borganda, Present Perfect zamoni ishlatiladi. U tajriba yoki holatning hozirgacha davom etayotganligini ifodalaydi.

Masalan: Have you ever had such a cough before? Has anyone in your family had this disease?

Majhul nisbat (Passive Voice) tibbiy nutqda keng qo'llaniladi, chunki tibbiy jarayonlarda e'tibor, odatda, harakatni bajaruvchiga emas, balki harakat obyektiga – ya'ni bemorga qaratiladi. Shuningdek, paramediklar ish jarayonida bajarilayotgan harakatlarni ovoz chiqarib aytib boradilar, bu esa majhul nisbat shakllarining zarurligini kuchaytiradi.

Masalan: The injection is given; First aid is provided to the patient.

Tibbiyot terminologiyasida ot so'z turkumi fe'llarga nisbatan ancha faol ishlatiladi. Buning sababi – ilmiy atamalarning aksariyati yunon va lotin tillaridan olingan bo'lib, ularning ko'plik shakli o'ziga xos grammatik qoidalar asosida yasaladi.

Masalan: nucleus – nuclei, fascia – fasciae, vertebra – vertebrae, bronchus – bronchi, cilium – cilia.

Tibbiy ingliz tili umumiy chet tillaridan farqli ravishda kasbiy terminologiya, qisqartmalar, rasmiy tibbiy hujjatlar va protokollar asosida shakllangan maxsus tizimni

tashkil etadi. Shu sababli bu yo'nalishda til o'rganish jarayoni leksik-semantik ko'nikmalarni rivojlantirish, tibbiy glossariylar bilan ishlash, diagnostika va simptomlarni tavsiflash kabi faoliyatlarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, kasbiy etik muloqot madaniyati, yozma va og'zaki kasbiy aloqa uslublarini egallash ham tibbiy ingliz tili o'qitishining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

XULOSA

Zamonaviy tibbiyot tizimi xalqaro kommunikatsiya vositasi sifatida ingliz tilining ustuvorligini har qachongidan ko'ra kuchliroq namoyon qilmoqda. Ayniqsa, paramedicsina yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun bu til nafaqat axborot manbai, balki professional faoliyatning ajralmas komponentiga aylanmoqda. Ular tibbiy xizmat ko'rsatish jarayonida bemor bilan bevosita muloqotda bo'ladilar, shuning uchun ingliz tilidagi kasbiy kompetensiya ulardan yuqori darajada aniqlik, tezlik va mas'uliyatni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Jovanović, D. & Živković, M. (2016). Effects of International Student Mobility on Employability: Erasmus Impact Study Findings. *Journal of Mobility and Education*, 4(2), 67–75.
2. Yakhshiboyeva Gulbahor Oybek kizi *Парамедицинада инглиз тили амалий машғулотларида тиббиётга оид терминларни ўргатиш методикаси, ХОРАЗМ МА'МУН АКАДЕМИЯСИ АХБОРОТНОМАСИ* Салми Дж. *Создание университетов мирового класса : пер. с англ. М. : Весь Мир, 2009. 132 с.*
3. Kopaysinovna, K. S. (2022). Age-related Characteristics and Teacher's Skills of Introducing Artistic Works to Preschool Children. *Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities*, 2(1.5 Pedagogical sciences).
4. Qosimov, A., Karimov, R., & Shokirov, Sh. (2020). Tibbiy ta'limda xalqaro standartlar: muammo va yechimlar. *O'zbekiston Tibbiyot Jurnal*i, 3(2), 25–30.